

DESCRIPTION OF HUSSAIN BOYKARA IN MIRZO BABUR'S "BABURNAMA".

Sobirov Jamshidbek

Andijan State University 3 course Student Of History Faculty

Abstract: This article briefly talks about how Babur Mirzo gave and described Husain Boygaro in his world-famous work "Boburnoma".

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma", Husayn Boygaro, Kamoliddin Behzod, Badiuzzaman, Khurasan.

Introduction

"Boburnoma" – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

"Boburnoma" – o'zbek nasrining go'zal namunasi. Ungacha Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari muqaddimasida, Rabg'uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog'onaga olib chiqdi. Biroq "Boburnoma" bu borada o'zbek nasrining o'ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko'rsatdi.

"Boburnoma"dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta'riflariga jiddiy ahamiyat beradi.

Adabiyotlar tahlili

Asarda o'sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma'lumotlaridagi ishonchlilikni ta'minlagan. Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarni aniqlashga imkon beradi. Bobur o'z otasi haqida shunday yozadi:

"Hanafiy mazhabliq, pokiza e'tiqodliq kishi edi... Ravon savodi bor edi.. "Xamsatayn" va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar "Shohnoma" o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rga parvo qilmas edi. Adolati bu martaba ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag'i tog'larning tubida ming o'yluk korvonni andog' qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar (xiroj oluvchilar) yiborib, korvonning jam'i jihatini (hamma yog'ini, butun atrofini) zabt qildi... Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim (omon, sog'-salomat) topshurdi. Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dog'i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof (tez gapiradigan, so'zamol) va fasih (yoqimli) va shirin zabon kishi erdi, shujo' (shijoatli) va mardona kishi edi".

Ulug' sarkarda, davlat arbobi, nozikta'b ijodkor Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qomusiy, tarixiy-memuar asari "Boburnoma"da o'ziga yaqin insonlar hamda zamondosh arbob, shoirlar, adiblar, sozanda va go'yandalar haqida qiziqarli, noyob ma'lumotlar keltirib, o'quvchi ko'z o'ngida ularning tugal siymosini gavdalandiradi. Jumladan, "kordon va sohib tajriba podshoh" Husayn Boyqaro shaxsiyatining eng muhim jihatlarini sinchkov tarixchi, mulohazakor adib va xolis tadqiqotchi sifatida tasvirlashga intilgan. Bir tomondan Bobur Husayn Boyqaro siymosini chizadi:

"Qiyiq ko'zluq, sherandom buyluq kishi edi. Belidin quyi ingichka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lib edi, xushrang, qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib namozg'a borur edi".

Tadqiqot metodologiyasi

Agar biz bu tavsiflarni Husayn Boyqaroning Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan portreti bilan qiyoslasak, adib fikrlarining haqqoniyligiga to'la ishonch hosil qilamiz va uning portret tasviri ustasi ekanligini bilib olamiz. Bobur ulug' hukmdorning shakl-shamoyilini chizish jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari va insoniy fazilatlarini teran ilg'ashga ham intiladi.

"Harrof va xush xulq kishi edi. Xulqi bir nima guzaroroq voqe bo'lub edi, so'zi ham xulqidek edi. Ba'zi muamalotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'rturgan uchun qonliqlarg'a topshurub, dorulqazog'a yibordi. Shujo' va mardona kishi edi. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay".

Ko'rinadiki, Husayn Boyqaro xushxulq inson, adolatpeshalikda qattiqqo'l hukmdor, ayni chog'da, jasoratli, tadbirkor podshoh. Shuningdek, u mehribon ota, inson qadriga yetadigan shaxs, bolalari bilan bo'lgan nizolarni Navoiy kabi buyuklar ko'magida tinchlik va hamniyat bilan hal qiladigan buyuk donishmand.

Husayn Boyqaro to'ng'ich farzandi Badiuzzamon Mirzo bilan oralarida kelib chiqqan mojarolarni, ixtiloflarni ulug' amir Alisher Navoiy ko'magida hal qilishga intiladi. Lekin Badiuzzamon Mirzo unamaydi. "Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg'a mashg'ul edilarkim, otasidek kordiyda va kordon podshoh tushcholik yo'l kelib, ramazondek mutabarrak va aziz oyg'a kechalik fursat qolib, otasidin iymanmay, tengridan qo'rqmay, hanuz ishi chog'ir ichmak edi, nashot bila, majlisoroliq edi inbisot bila. Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay".

Tahlil va natijalar

Demak, Bobur bir tomondan Husayn Boyqaroning har qanday murakkab va qaltis mojarolarni aql-zakovat, shariat, din-diyonat yo'li bilan, hatto Navoiydek jonfido do'stlarni oraga solib hal qiladigan, sermulohaza hukmdorni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan davlat, mansab, aysh-ishratni deb o'z padari buzrukvorlariga qarshi bosh ko'targan shahzodalarni qattiq qoralaydi. Ma'lumki, Husayn Boyqaro temuriy shahzodalar orasida eng donishmandi, barcha soha hunarmandlarini, ilm ahlini qo'llab-quvvatlaydigan homiysi hisoblangan. U hukmronlik qilgan davrda Xuroson, ayniqsa uning poytaxti Hirot shahri adabiy, madaniy, ilmiy va san'at markazi sifatida rivojlanadi, taraqqiy etadi.

“Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajib zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg’ullig’i bor edi, himmati va g’arazi ul edikim, ul ishni kamolg’a tegurgay”.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Bobur Husayn Boyqaroni bir tarafdan temuriy zodagonlar orasida eng zabardast inson, o’ttiz ikki harbiy hunarni egallagan sarkarda, hamisha mamlakat butunligi, el osoyishtaligini o’ylaydigan bunyodkor podshoh, ikkinchi tarafdan esa ko’plab ijodkorlarning suyanchig’i, rahnamosi va nozikta’b shoir sifatida tasvirlashga muvaffaq bo’lgan. Adib Husayniyning islomiy ahkomlar bilimdoni, ko’p masalalarni faqat shar’iy yo’l bilan hal qilishga intilgan hukmdor ekanligini alohida ta’kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: O’qituvchi, 2008y.
2. Saidbek Xasanov. Zahiriddin Muhammad Bobur.- Toshkent: O’zbekiston, 2011y.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bobur-husayniy-haqida.html>
4. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/boburnoma-haqida/>